HUNAR - HUNARDAN UNAR

Yunusova Muyassar Raxmatovna Toshkent viloyati Yangiyo'l shahar

XTBga qarashli 6-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Erkabayeva Munojat Raxmatovna Toshkent viloyati Yangiyo'l shahar

XTBga qarashli 2-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Hunar, hunardan rizqing unar degan edi ota-bobolarimiz. Shu naqlga rioya qilgan holda, mana bugungi kungacha mamlakatimizda hunarli kishini iqboli porloq, kelajagi bor deya ardoqlaymiz. Ushbu maqolada ayni shu dolzarb maqolning hayotimizdagi o'rni va ahamiyati haqida batafsil bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: hunar, rizq, mehnat, xalq, jamiyat, hikoya va h.k.

Barchaga ma'lumki, turkiy xalqlar, shu jumladan o'zbek xalqi ham, azal-azaldan mehnatni qadrlab kelgan, hunarli insonni martabasini boshqalardan balandda qo'yib kelgan xalq bo'lgan. Shu boisdan mana bugungacha xalq tilida hunarli insonning kamolini madh etuvchi maqollar, asotirlar va naqllar talaygina. Xususan, Inson hayotda yashar ekan uning maqsadi bo'lmog'i lozim. Kimdir o'z

orzu-istaklariga ilm orqali erishsa, kimdir kasb-hunari bilan yetishadi. Ilm – ma'rifat va kasb – hunar har bir davrda kishilik jamiyati taraqqiyoti uchun muhim omil bo'lib kelgan. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat qildilar: "Ey Ali! Kishi halqumini haromdan saqlamaguncha va halol kasb qilmaguncha tavbasi qabul bo'lmaydi" (Payg'ambarimizning (s.a.v.) hazrati Aliga (r.a.) nasihatlari. Imom Sha'roniy). Hadisi sharifdan ma'lum bo'ladiki, kishi toki halol kasb-hunar qilib, topgan davlatini faqat xayrli amallarga saqlamaguncha, halol ne'matlar bilan oziqlanib, o'z tirikchilik imoratini halollik ustiga qurmaguncha, uning tavbasi qabul bo'lmas ekan. O'tgan zamonlarda bir baxil kishi bor edi. Uning boyligi shu darajaga yetgan ediki, molining hisobini o'zi ham bilmas edi. Lekin bu boylikdan na o'ziga va na ahli ayoliga va na boshqalarga hech qanday foyda yo'q edi. Chunki, aning e'tiqodicha, boylikdan maqsad kecha-kunduz harakat qilib faqat mol yig'ish edi. Ammo mol yig'ishdan asl maqsad nima? Molni qanday yerlarga sarf qilish kerak? Yemoq, ichmoqqa, ilmu hunarga, faqiru muhtojlarga yordam bermoq kerakmi, yo'qmi? Bu xususda hech o'ylamas edi. Hattoki, o'zining ahli, avlodining taom va kiyim singari eng zarur ehtiyojlariga ham ming mashaqqat bilan sarf qilar edi. Bozordan non olsa, arzonligi uchun kuyg'an va qotganlarini, meva olsa, chirigan va sasiganlarini olar edi. Kiyimlari esa har vaqt eski, yirtiq va yamoq bo'lar edi. Uning Ahmad ismli birgina o'g'li bor edi. Ba'zi bir do'stlarining dalolatlari bilan bir kun o'g'lini hunar o'rgatish maqsadida bir hunarmandga olib

bordi. Usta ustaxona nizomlarini bayon qilib, o‘rgatgan hunari uchun har oyda bir tillo to‘lab turish lozim ekanini aytdi. Bir tilloni eshitgach, boyning avzoyi buzildi.

Ustaning yuzig‘a boqib: «Oyda bir tillo?.. Yo‘q, o‘g‘limga hunar o‘rgatish meni ishim emas ekan. Yur, o‘g‘lim, hunar o‘rganmasang ham bir rizqing o‘tar», — deb o‘g‘lini qaytib olib ketdi. Ahmad bechora otasining baxil va xasisligi soyasida dunyoda yashash va insonlar qatorida bo‘lish uchun eng kerak bo‘lg‘on hunar hamda ilm-ma’rifatdan mahrum bo‘lib, johil va nodon holda o‘sdi. Oradan fursat o‘tib, bir kuni ajal kelib, boyning yoqasidan tutdi. O‘g‘lining asl inson bo‘lishi uchun ilm-ma’rifat va kasb-hunar o‘rgatish yo‘lida bir tilloni qizg‘angan baxil boy kun kelib hamma mol-mulkini o‘g‘li Ahmadga tashlab, o‘zi bir parcha bo‘zga o‘ralib, oxiratga safar qildi. Ahmad esa yoshlikda ilm va tarbiya ko‘rmagan, kasb-hunar o‘rganmaganligi bois, yaxshi va yomonni farqlamaydigan, boylikning qadrini bilmaydigan, isrof qiluvchi va nodon bir kishi bo‘lib yetishdi. To‘rt-besh nafar yomon kishilarga qo‘shilub, har xil qabohat yo‘llariga kirdi va otasining shuncha xasislik bilan yiqqan molini oz vaqt ichida tamom qilib, o‘zi faqir va muhtoj bo‘lib qoldi. Baxilning moli, isrofgarning holi, ilm va hunarsizning ahvoli shunday bo‘ladi.

Hazrat Bahouddin Naqshbandiyning: “Dil ba yoru dast ba kor!” ya’ni, ko‘ngil Alloh yodi bilan, qo‘l esa ish bilan band bo‘lsin, degan shiori butun musulmon olamiga mashhurdir. Bu esa diling diningda bo’lsa ham, qo’lingda hunaring,

mehnating bo’lsin deganidir. Shuni ham alohida ta’kidlab o’tish joizki, xalqimizda bir boshga qirq hunar ham oz degan maqol bor. O’z o’rnida bu maqol qancha hunar o’rgansang ham yana o’rganishdan to’xtama deganidir. Ayni shu milliy va qadimiy tushunchalarni yoshlar ongiga singdirishda shu kabi naqllar va hikoyalarning ahamiyati beqiyosdir. Yoshlarga bevosita ular qayerda qanday ahvolda bo’lishiga qaramasdan, hunar ularni xaloskori bo’la olishi mumkinligini uqtirish orqali chiroyli va bekami-ko’st kelajak taqdim etish mumkin ularga. Qadimda bir podshoh o’tgan ekan, podshohning yakka-yu yolg’iz o’g’li bo’lib, u mendan keyin o’ksib behunar bo’lmasin deb, shoh o’g’lini dam kulolchilikka, dam gilamdo’zlikka beribdi. Yigit barcha hunarlarni qunt bilan o’rganibdi. Kunlarning birida podshoh vafot etib, mamlakatga yovuz kuchlar bositirib kirgan ekan. Noiloj shahzoda boshqa yerlarga qochib ketishga majbur bo’libdi. Boshqa yurtda esa uni og’ir mashaqqat kutib turganinin yaxshi bilsa-da, boshini egmay, bosh tortmay qo’lidan kelgan ishni qila boshlabdi. O’zini tiklab, qurol-yarog’ yig’ib, kichik bir qo’shin to’plashga muvofiq bo’libdi. Keyin shu kichik qo’shincha katta armiyaga aylanib, shahzoda o;z ota makonini qaytarib olish haqida o’ylay boshlabdi va shunday qilibdi ham. Shahzoda otasidan qolgan taxtga chiqar ekan, otasi unga nega bir qancha hunar o’rgatganini tushunib yetibdi. Shu-shu xalq tilida hunarli inson, xoh u shoh bo’lsin, xoh u gado bo’lsin, lekin xor bo’lmaydi degan tushuncha hukm surib keladi.

Mir Alisher Navoiy Hazrat Bahouddin Naqshbandiy haqlarida so‘z yuritib “kimxobga naqsh bog‘lamoqqa mashhurlar” degan edi. Ma’lum bo‘lyaptiki, Xoja Bahouddinning kasblari kimxobga, ya’ni matoga naqsh solish ekan. Chunki tariqat pirlari ma’lum bir kasbni o‘rganib, hayot kechirganlar. Ularning taxalluslari ham o‘z kasblaridan olingan. Jumladan, shayxul-mashoyix Abu Said Xarroz mahsido‘z, shayxulislom Xoja Abdulloh Ansoriy etikdo‘z, shayx Muhammad Sakkok pichoqchi, shayx Abulfayz Haddod temirchi, o‘z zamoni qutbi, ya’ni zamonasining yagona avliyosi, valiyullohi va g‘avsi – madadkori hisoblangan shayx Abul Abbos Omiliy hammol, shayx Abulhasan Najjor duradgorlik bilan shug‘ullangan. Ularning laqablari ham kasbu korini bildirib turibdi: Xarroz — mahsido‘z, sakkok — pichoqchi, haddod — temirchi, najjor — duradgor degan ma’nolarni anglatadi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, kamolot cho‘qqisi faqat ilm-ma’rifat va kasb-hunar bilan egallanadi. “Insonlarning yaxshisi boshqalarga foydalirog‘idir”. Jobir ibn Abdulloh roziyallohu anhu rivoyat qilgan hadisi sharifdagi insonlarning xayrlisi degani, yetuk va komil bir mo‘min deganidir (Mo‘minning sifatlari. Muhammad Zohid Qo‘tqu). Bunday kishilar o‘zlari uchun ham, jamiyat uchun ham faqat foyda keltiradilar. Shu bilan birga o‘zlari egallagan bilim va hunarni ham boshqalarga beminnat o‘rgatadilar. Uni o‘rgatishda baxillik qilmaydilar.

Hunar asosida hunarmandchilik degan sohaga asos solindi va shu madaniy merosni asrab-avaylab bugungi kun kishisiga yuklatilgan eng katta mas'uliyat desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachiliksan ajralib chiqdi, turli ijtimoiytarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi, turli ixtisosliklar (kulollik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, kemasozlik, taqachilik, tunukasozlik va boshqalar)ga ajraldi.

Hunarmandchilik qanday tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab, mas, paxta va pilla bor yerda to'qimachilik, sifatli xom ashyo bor yerda kulolchilik, jun va teri ko'p yerda to'qimachilik va ko'nchilik, shunga qarab kosibchilik, o'rmonlar ko'p yerda yog'ochsozlikgma'danlarga boy yerlarda metall ishlab chiqarish va temirchilik, dengiz va daryo bo'ylarida kemasozlik va boshqa rivoj topgan. Jamiyat taraqqiyoti bos-qichlari, mehnat taqsimoti bilan aloqador holda Hunarmandchilikning 3 turi shakllangan: 1) uy hunarmandchiligi; 2) buyurtma bilan mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik 3) bozor uchun mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik. Uy hunarmandchiligi kapitalizmga qadar bo'lgan davrlarda hunarmandchilikning eng ko'p tarqalgan turi bo'ldi.

Hunarmandchilikning bu turi natural xo‘jalikning ajralmas qismi hisoblanadi. Shaharlar rivoji buyurtma bilan hunarmandchilik mahsulotlari tayyorlash va bozorga hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning jadal o‘sishi bilan uzviy bog‘liq. Natijada hunarmandchilik mahsulotlari tovarga aylandi, tovar ayirboshlash uchun ishlab chiqariddi. Davr taqozosi bilan hunarmandchilikning yangi-yangi turlari vu-judga keldi. Hunarmandlar ham turli mahsulotlar tayyorlash bo‘yicha ixtisoslasha bordilar. Shaharlardagi mahallalar hunarmandlarning kasbkoriga qarab shakllangan (20-asrning boshlarida Toshkentda ko‘nchilar, kulollar, egarchilar, beshikchilar, o‘qchilar, kosiblar mahallalari bo‘lgan). Ayrim mahalla, kvartal, shahar, 8hunarmandchilikning ma’lum mahsulotlari bilan shuhrat qozona boshladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Yuldoshev, F. (2021). Бошланғич таълимда маънавий тарбия усуллари. Журнал инновации в начальном образовании, 1(Архив№ 2).

Yuldoshev, F. (2021). Бўлажак ўқитувчиларни аксиологик маданиятини шакллантириш. Журнал инновации в начальном образовании, 1(Архив№ 2).

Yuldoshev, F. (2021). бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг касбий маданиятини шакллантириш зарурияти. Журнал инновации в начальном образовании, 1(Архив№ 2).

Yuldoshev, F. (2021). BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNI TASHKIL ETISH. Журнал инновации в начальном образовании, 1(Архив№ 2).

Farhodjon, Y. DIAGNOSTICS OF COGNITIVE ASSIMILATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS AS AN ACTUAL PEDAGOGICAL PROBLEM.